

RAQAMLI IQTISODIYOT

Malikova Xumoroy Abdumajit qizi

Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning mazmuni, uning zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o'рни, ahamiyati va olimlarning fikr mulohazalari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar yordamida iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, samaradorlikni oshirish hamda global raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilingan qonun va qarorlar tahlil etilgan. Maqolada raqamli iqtisodiyotning afzalliklari, kamchiliklari hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari haqida ham fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, texnologiya, innovatsiya, infratuzilma, raqamlashtirish, samaradorlik, islohot, iqtisodiy rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье анализируется сущность цифровой экономики, её роль и значение в современной экономической системе, а также мнения и взгляды учёных по данной теме. Освещаются возможности автоматизации экономических процессов, повышения эффективности и обеспечения глобальной конкурентоспособности с помощью цифровых технологий. Кроме того, рассматриваются проводимые в Республике Узбекистан реформы, а также принятые законы и постановления, направленные на развитие цифровой экономики. В статье также отражены преимущества, недостатки и перспективные направления развития цифровой экономики.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, технологии, инновации, инфраструктура, цифровизация, эффективность, реформы, экономическое развитие.*

Annotation: *This article analyzes the essence of the digital economy, its role and importance in the modern economic system, as well as the opinions and views of scholars on the subject. It highlights the opportunities for automating economic processes, increasing efficiency, and ensuring global competitiveness through digital technologies. In addition, the article examines the reforms carried out and the laws and decisions adopted in the Republic of Uzbekistan to develop the digital economy. The advantages, disadvantages, and future development directions of the digital economy are also discussed.*



Keywords: *digital economy, technology, innovation, infrastructure, digitization, efficiency, reform, economic development.*

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish – bu O‘zbekistonning kelajagi, raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni barpo etishning ring muhim yo‘lidir.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

KIRISH

Prezident Shovkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016-yilda O‘zbekiston rahbariyatiga kelishi bilan, respublikamiz iqtisodiyoti tub o‘zga-rishlarga uchradi. Iqtisodiyot ochiq, jadal, innovatsion rivojlanish-ga aylandi. Biroq, tan olish kerakki, jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik taraqqiyot sharoitida O‘zbekistonning keyingi iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan tassavvur qilish qiyin. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining maqsadlariga muvofiq quyidagilar qabul qilindi:

- «O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son Farmoni.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 21- noyabrdagi PQ - 4022-son Qarori.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.03-yildagi PQ-3832-son «O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» hamda zamonaviy axbo-rot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan blokcheyn texnologiyalarini ishlab chi-qish va ulardan foydalanishda malakali kadrlar tayyorlash.¹

An’anaviy iqtisodiyotni raqamli iqtisodiyotga aylantirishda muvaffaqiyatga erishish uchun malakali kadrlar tayyorlashsiz muammoli ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli buyrug‘i asosida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bakalavrlarni tayyorlash uchun raqamli iqtisodiyot fakulteti ochildi va Samarqand davlat universiteti iqtisodiyot va biznes fakulteti negizida raqamli iqtisodiyot sohasida malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha magistratura ochildi.[8]

¹ www.lex.uz Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida.



Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga bir qator ta’riflar berilgan. Jumladan professor V.Ivanov “Raqamli iqtisodiyot – haqiqatimizni to’ldiradigan virtual muhit”, deb ta’rif bergan Professor D.Kungurovning fikricha, “raqamli iqtisod” atamasiga ikkita – klassik va an’anaviy yondashish mavjud.[7]

Jahon iqtisodiy forumi asoschisi Klaus Schwab “Raqamli iqtisodiyot — bu to’rtinchi sanoat inqilobining yuragi bo’lib, u sun’iy intellekt, robototexnika va tarmoqli tizimlar orqali butun dunyo iqtisodiyotini o’zgartirmoqda.” Schwab raqamli iqtisodiyotni inson hayoti va ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o’zgartiruvchi kuch sifatida ko’radi.

MIT professori, “The Second Machine Age” muallifi Erik Brynjolfsson “Raqamli texnologiyalar iqtisodiy o’sishni tezlashtiradi, lekin ular bilan birga yangi muammolar — mehnat bozori nomutanosibligi va daromad tengsizliklari ham yuzaga keladi.” U raqamli iqtisodiyot nafaqat foyda, balki ijtimoiy mas’uliyatni ham talab etishini ta’kidlaydi.

Kanadalik olim, “Digital Economy” kitobi muallifi Don Tapscott “Raqamli iqtisodiyot – bu faqat texnologiya emas, bu jamiyatni, biznesni va hukumatni boshqarish usullarini o’zgartiruvchi yangi tafakkurdir.” Tapscott raqamli iqtisodiyotni inson tafakkuri va boshqaruv madaniyatidagi evolyutsiya deb biladi.

Nobel mukofoti sovrindori Joseph Stiglitz “Raqamli iqtisodiyot samaradorlikni oshiradi, ammo davlatlar bu o’zgarishlarga moslashish uchun kuchli siyosiy va ijtimoiy strategiyalar ishlab chiqishi kerak.” Stiglitz raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyati uchun davlat siyosatining muvozanatli bo’lishini zarur deb hisoblaydi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida sohaga oid olimlarning izlanishlarini o’rganish, abstrakt mantiqiy fikrlash, tahliliy usul, empirik usul, sistemali yondashuv, iqtisodiy yondashuv usullaridan foydalanish.

Tahlil va natijalar. Raqamli iqtisodiyot- bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo’lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko’chirish deganidir. Raqamli iqtisodiyot- bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo’llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. [9]

«Raqamli iqtisodiyot» atamasi ikki olimning nomlari bilan bog’liq. Kanadalik iqtisodchi Don Tapskott va amerikalik axborot texnologiya (IT) mutaxassisi Nicholas Negroponte . 1995-yilda "Being Digital" kitobida Nikolas



Negroponte "Raqamli iqtisodiyot" atamasini qo'llagan. Ilmiy asarida uchta kesishidigan media tarmoqlarga (ommaviy axborot vositalari, (OAV) aloqa vositalari va kompyuterlar) asoslangan konvergenstiya modelini taklif etgan. Bunday birlashish natijasida yangi (raqamli) media shakllandi. 1995-yilda Kanadalik iqtisodchi Don Tapscottning "The Digital Economy» [2,3,4] kitobi nashrdan chiqadi. Unda Don Tapscott rivojlangan mamlakatlardagi jamiyatning evolyutsion tendensiyalarini tahlil qilish natijalarini bayon qildi. Axborot muhitni yangi iqtisodiyotga, ya'ni raqamli iqtisodiyotga aylantiradigan 12 muhim belgilarni keltirgan. Bular: 1. Bilimlar. 2. Raqamlashtirish 3. Virtuallashtirish. 4. Dinamizm. 5. Integratsiya. 6. Vositachilarsiz ishlash. 7. Konvergenstiya. 8. Innovatsiya. 9. Ishlab chiqaruvchi-iste'molchi munosabatlarining o'zgarishi. 10. Samaradorlik. 11. Globallashtirish. 12. Kelishmovchilik.

Manbalarda keltirilishicha "Raqamli iqtisodiyot" iqtisodiyotning bunday turi ma'lum darajada amalda ishlaydigan turdagi model hisoblanadi.[6] Raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo'lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish tizimi sanaladi.[5]

Global Digitalization Index, DiGiX va boshqa manbalarga asoslanib, raqamli iqtisodiyoti eng rivojlangan deb hisoblanadigan top 5 davlatlar ro'yhati (raqamli infratuzilma, xizmatlar, innovatsiyalar va raqamlashtirish darajasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar bilan). (1-jadval)

Raqamli iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar – top 5.

1-jadval

Davlatlar	Nega rivojlangan deb hisoblanadi (asosiy sabablar)
Amerika Qo'shma Shtatlari	ICT infratuzilmaga katta sarmoya, yirik texnologik kompaniyalar, innovatsiyalar va global texnologik yetakchilik.
Singapur	Raqamli xizmatlar va elektron hukumatning yuqori darajada; biznes muhitini raqamlashtirish.
Shvetsiya	Yangi texnologiyalar, yuqori internet qamrovi va odam kapitali; innovatsion ekosistema.
Finlyandiya	Raqamli xizmatlar, shaxsiy malaka va texnologiyalardan keng foydalanish;



		infratuzilma mustahkamligi.
	Daniya	Internet a’loqasi, tez va barqaror tarmoqlar, aholi raqamli savodhonligi yuqori.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun uchta model mavjud.

1. Raqamli iqtisodiyot rahbarlarini o‘z ichiga olgan model : Birinchi model rivojlangan davlatlarni o‘z ichiga oladi: AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlari. Ilmiy adabiyotlarda ta’kid-lanishicha, yaqinda AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish modellari kesishish jarayoni boshlandi. Shunday qilib, bu mamlakatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik bir qator sabablarga bog‘liq: ishlab chiqarish va bandlik tuzilmasini xizmat ko‘rsatish sohasi va ilmiy jihatdan intensiv ishlab chiqarish foydasiga o‘zgartirish; hosildorlikning o‘sishi asosida ishlab chiqarishni jadallashtirish; bu iqtisodlarning tashqi sharoitlardan mustaqilligini, ularning progressiv va o‘z-o‘zini ta’minlashga qaratilgan investitsiyalar va jamg‘armalarning ichki manbai; ushbu ikki mintaqaning o‘zaro bog‘liqligini dunyoning qolgan qismidan progressiv yopish fonida tezda chuqurlashtirish. Ushbu o‘xshash elementlarning aksariyati AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida teng darajada rivojlangan ilmiy va texnologik taraqqiyot tendentsiyalari bilan bog‘liq.

2. "Taraqqiyotga erishish" modeli : Ikkinchi modelni yangi sanoat mamlakatlari shakllanti-radi. So‘nggi paytlarda Singapur va Tayvan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqdalar, bu hatto ba’zi jihatdan Yaponiyadan ham ustundir. Aynan ushbu davlatlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha etakchi ikkinchi guruhda hisoblanadi. Biroq, turmush darajasi va ijtimoiy kapitalning rivojlanish darajasi bo‘yicha ushbu davlatlar orqada qolmoqda.

3. Axborotni ishlab chiqishning tashqi vositalarini o‘z ichiga olgan model: Axborot iqtisodiyoti rivojlanishining tashqi ko‘rinishlarini o‘z ichiga olgan uchinchi model, ta’limning juda past darajasi va umuman, aholining turmush darajasi pastligi, raqamli infratuzilmaning yo‘qligi yoki ahamiyatsiz rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, ushbu model qaysidir ma’noda firma darajasida ham, davlat darajasida ham biznes jarayonlarini bosh-qarishning nochorligi bilan tavsiflanadi. Ushbu mamlakatlar qatoriga Afrika mamlakatlari va ba’zi Osiyo mamlakatlari kiradi. Ularning ixtisoslashuvi xalqaro bozor-larga xom ashyo yetkazib berishdir. Ushbu mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishni tubdan isloh qilish, aholining ta’lim darajasi va turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan ulkan investitsiyalarni kiritish zarur.[1]



Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari va kamchiliklari.

2-jadval.

Afzalliklari	Kamchiliklari
Samaradorlik va tezlik -ishlab chiqarish, to'lovlar va xizmatlar tez amalga oshadi.	Texnik nosozliklar xavfi -tizim ishdan chiqsa, butun jarayon to'xtashi mumkin.
Xarajatlari kamaytirish -avtomatlashtirish orqali ortiqcha xarajatlar yo'qoladi.	Dasturiy va texnik infratuzilma qimmat -boshlang'ich bosqichda katta sarmoya talab etiladi.
Moliyaviy inkluziya -har kim onlayn bank va to'lov tizimlaridan foydalana oladi.	Raqamli savodsizlik -ayrim aholida texnologiyadan foydalanish ko'nikmalari yetishmaydi.
Shaffoflik va nazorat -raqamli tizimlar korrupsiyani kamaytiradi, nazoratni osonlashtiradi.	Kiberxavfsizlik muammolari -ma'lumotlar o'g'irlanishi yoki buzilishi xavfi mavjud.
Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar - Big Data tahlili orqali samarali boshqaruv amalga oshdi.	Shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi buzilishi -foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari himoyasiz qolishi mumkin.
Yangi ish o'rinlari -IT, sun'iy intellekt, raqamli marketing kabi sohalarida ish o'rinlari yaratiladi.	Ba'zi kasblar yo'qoladi -avtomatlashtirish tufayli an'anaviy ish o'rinlari qisqaradi.
Barqaror rivojlanish -resurslar tejaladi, ekalogik zarar kamayadi.	Texnologiyaga haddan ziyod bog'liqlik -tizim ishdan chiqsa, iqtisodiy faoliyat to'xtab qolishi mumkin.

XULOSA VA TAHLILLAR

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda jahon iqtisodiy tizimining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim, tibbiyot va boshqaruv sohalarida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda inson omilini yengillashtirish imkonini beradi. O'zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, korrupsiyani kamaytirish, davlat xizmatlarini shaffof va qulay shaklda taqdim etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi bu boradagi islohotlarning muhim



yo'nalishini belgilab berdi. Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari bilan bir qatorda, ayrim muammolar ham mavjud — infratuzilmaning notekis rivojlanishi, raqamli savodxonlikning yetarli emasligi va kiberxavfsizlik masalalari shular jumlasidandir. Shu bois, mamlakatda raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va axborot xavfsizligini mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot O'zbekistonni yangi bosqichga olib chiqadigan, innovatsion va barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir.

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda har bir mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish natijasida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, xarajatlar qisqarib, resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi asosida bir qator sohalar to'liq raqamlashtirildi. Xususan, davlat xizmatlari, bank tizimi, ta'lim va sog'liqni saqlash yo'nalishlarida elektron platformalar keng joriy etilib, aholiga qulayliklar yaratildi. Shuningdek, IT Park, “Digital City” kabi loyihalar orqali minglab yoshlar IT yo'nalishida yangi ish o'rinlariga ega bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyotning kengayishi O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashga, investitsiyalar oqimini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning rivojida hali yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Jumladan: ayrim hududlarda internet infratuzilmasining sustligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi, kiberxavfsizlik tahdidlari. Shu bois, davlat siyosatida raqamli infratuzilmani mustahkamlash, aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida texnologik bilimlarni oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Raqamli iqtisodiyot O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki davlat boshqaruvini soddalashtiradi, ijtimoiy sohalarda shaffoflikni ta'minlaydi va innovatsion tafakkurni rivojlantiradi. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatni yangi bosqichga olib chiqish, global raqobatda o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Takliflar:

1. Raqamli infratuzilmani barcha hududlarda teng rivojlantirish;
2. Kiberxavfsizlik tizimini kuchaytirish va xalqaro standartlarga moslashtirish;
3. Ta'lim tizimida raqamli ko'nikmalarni keng joriy etish;
4. Xususiy sektorni raqamlashtirish uchun soliq imtiyozlari va grantlarni kengaytirish;



5. Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahliliga asoslangan boshqaruv tizimlarini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR:

1. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. Yozuvchilar: G.M. PORSAEV, B.SH. SAFAROV, D.Q. USMANOVA 11-12-bet. Nashr Toshkent 2020-yil
2. Don Tapscott Publisher: McGraw-Hill Published: 1994 Length: 368 pages
3. Tapscott, D., The Digital Economy: Promise and Peril In The Age of Networked Intelligence, McGrawHill, 1995. – 342p.
4. Тапскотт, Д. (1999), Электронно-цифровое общество: Плюсы и минусы эпохи сетевого интеллекта / Пер. с англ. Игоря Дубинского; под ред. Сергея Писарева // Киев: 1NT Пресс; Москва : Релф бук, 1999. — 432 с.
5. Mustafakulov.O.K. (2023). Statistika tizimidagi raqamli platformalarni baholash va ularni tanlash. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 3(3), 232-237
6. Mustafakulov.O.K. (2024). Statistika tizimida raqamli platformalarni amaliy tadbiq etish metodologiyasi. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 4(1), 45-54.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.
8. www.lex.uz
9. www.aniq.uz

